

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 fevral holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **9,5 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'ssatmayotgan korxonalarning ulushi o'zgarishsiz qolgan
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **0,4 mingtaga oshgan**.

2018 yilning yanvar oyida Buning natijasida joriy viloyatda 479 ta korxonalar yilning boshiga nisbatan va tashkilotlar yangi tashkil faoliyat ko'ssatayotgan etildi, bu esa o'tgan yilning korxona va tashkilotlar soni shu davriga nisbatan 0,7 mingtaga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 74,7 % kamaygan hamda ularning soni 47 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy viloyatda 479 ta korxonalar yilning boshiga nisbatan va tashkilotlar yangi tashkil faoliyat ko'ssatayotgan etildi, bu esa o'tgan yilning korxona va tashkilotlar soni 487 ta (1,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 27,4 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Qibray tumani (11,3 %), Zangiota (10,9%), Angren sh (6,1 %) va Yuqorichirchiq (6,1 %) tumanlarida kuzatilmoxda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,  
2018 yilning 1 fevral holatiga)*

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga	ming birlik	jamiga
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>31,2</b>	<b>100,0</b>	<b>27,4</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on	727	2,3	589	2,1
Ohangaron	821	2,6	667	2,4
Bekobod	861	2,8	736	2,7
Bo'stonliq	1505	4,8	1198	4,4
Bo'ka	1036	3,3	765	2,8
Quyichirchiq	758	2,4	677	2,5
Zangiota	3791	12,1	2977	10,9
Yuqorichirchiq	1783	5,7	1667	6,1
Qibray	3261	10,4	3085	11,3
Parkent	1642	5,3	1549	5,7
Piskent	824	2,6	746	2,7
O'rtachirchiq	1532	4,9	1336	4,9
Chinoz	1030	3,3	975	3,6
Yangiyo'l	1786	5,7	1291	4,7
Toshkent	1521	4,9	1516	5,5
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	617	2,0	616	2,2
Olmaliq	1338	4,3	1257	4,6
Angren	2157	6,9	1678	6,1
Bekobod	944	3,0	882	3,2
Ohangaron	634	2,0	632	2,3
Chirchiq	1775	5,7	1650	6,0
Yangiyo'l	918	2,9	917	3,3


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat  
ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da**



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 87,7 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 12,3 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda o'zgarishsiz qolgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,3 % savdoda, 19,2 % sanoatda, 11,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6,5 % qurulishda, 3,4 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 % axborot va aloqa va 26,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi savdoda (-15,7 f.p.), qurulishda (-2,4 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (-1,3 f.p.), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda va boshqa faoliyat turlarida (-1,0 f.p/dan), axborot va aloqada (-0,1 f.p) kamayganligi, buning natijasida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+1,6 f.p.), sanoatda (+4,1 f.p.), shuningdek tashish va saqlashda hamda (+15,7 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


## Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.02.2018 y.	01.02.2017 y.	farqi (+ -)
Savdo	7,5	23,2	-15,7
Qurilish	3,4	5,9	-2,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,5	7,7	-1,3
Boshqa turlari	26,8	27,8	-1,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,8	2,8	-1,0
Axborot va aloqa	1,4	1,5	-0,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	11,1	9,5	1,6
Sanoat	22,3	18,2	4,1
Tashish va saqlash	19,2	3,5	15,7

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 600 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 530 taga yoki 13,2 % ga o'sgan.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Zangiota 84 ta (14,0 %), Qibray 74 ta (12,3 %) va Yuqorichirchiq tumanlari 61 ta (10,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Bekabod shahri va Bekabod tumani 4 tadan (0,7 %), Oqqa'rg'on 5 ta (0,8 %) va Bo'ka tumanlari 6 ta (1,0 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

### Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 fevral holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 384 ta (64,0 %), savdoda 71 ta (11,8 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi esa 54 ta (9,0 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 1 ta (0,2 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 ta (0,7 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 12 ta (2,0 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'gri keladi.


## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



### Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga viloyatimizda faoliyat ko`rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 22,1 mingtani tashkil qilgan. Bu ko`rsatkich 2017 yil 1 fevral holatiga qaraganda 11.1 %ga oshgan. Faoliyat ko`rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2608 tasi (11,8 %) Qibray, 2449 tasi (11,1 %) Zangiota, 1420 tasi (6,4 foizi) Yuqorichirchiq hamda 1348 tasi (6,1 foizi) Toshkent tumanlari hissalariga to'gri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 22,1 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 6060 tasi (27,5 %) – savdoda, 5154 tasi (23,3 %) - sanoatda, 2981 tasi (13,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2039 tasi (9,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1761 tasi (8,0 %) - qurilishda, 918 tasi (4,2%) - tashish va saqlashda, 378 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida, 367 tasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2417 tasi (15,0%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### **Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2018 yil 1 fevral holatiga bilan 442 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 13,9 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Zangiota (51 ta), Qibray (43 ta) va Yangiyo'l (372 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Nurafshon shahri (7 ta), Piskent (6 ta) hamda Quyichirchiq (10 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (121 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (82 ta) va (74 ta), savdoda tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (7 ta), tashish va saqlashda (14 ta) va axborot va aloqada (17 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



### Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 fevral holatiga 1517 tani tashkil etib, ulardan 1348 tasi yoki 88,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni **35,4** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 40,7 % yoki 549 tasi sanoat, 17,9 % yoki 241 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,6 % yoki 237 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 16,0 % yoki 216 tasi savdo, 0,8 % yoki 11 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 10 tasi qurilish, 0,5 % yoki 7 tasi axborot va aloqa, 0,4 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 5,3 % yoki 71 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: X.Igamberdiyev  
(0371) 230-86-84,83

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan